

O' ZBEK XALQIDA ANTROPONIMIK AN'ANALARNING SHAKLLANISH OMILLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17498713>

Doschanova Sabrina

doschanovasabrina2@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada o'zbek xalqining antroponimik tizimi shakllanishining tarixiy, diniy, psixologik va madaniy asoslari tahlil etiladi. Ism berish jarayonining xalq tafakkuri, diniy e'tiqodi va ijtimoiy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligi ilmiy nuqtayi nazardan izohlanadi.

Ism inson taqdirida muhim rol o'ynaydi. Har bir ota-ona farzandiga ism tanlashda o'rni katta ahamiyatga ega. Ism insonni ulug'lashi, u haqida ma'lumot berishi va kelajagiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida so'z boradi.

Bundan tashqari, totemistik qarashlar bolalarga ism qo'yishda bolalarning jismoniy va ma'naviy dunyosini himoya qilishda hal qiluvchi rol o'ynashiga ishonish kontekstida ko'rib chiqiladi. Ism o'z-o'zidan tavsiflovchi so'z emas, balki moddiy va ma'naviy o'ziga xoslikni o'zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun turkiy xalqlar jamiyatida tug'ilishdan oldin, tug'ilish paytida va tug'ilgandan keyin amalga oshirilgan ushbu ism qo'yish jarayoni tahlil etiladi.

Kalit so'zlar

antroponim, xalq tafakkuri, diniy omil, ijtimoiy ong, mifologiya, ismning semantik tabiati.

Kirish. Ism – bu nafaqat nomlash vositasi, balki xalqning madaniy xotirasi va ruhiy dunyosining ifodasi. O'zbek xalqida ism tanlash jarayoni shunchaki nominativ hodisa emas, balki avlodning ma'naviy merosi, hayotiy falsafasini mujassamlashtirgan qadimiy an'anadir. Shu bois antroponimlar millat tafakkurining diqqatga sazovor qatlamidir. Qadriyatlar asrlar davomida shakllanib, o'zgarib shakllanib boradi. Bu jarayon shaxs nomlariga ham, albatta, ta'sirini o'tkazadi.

Ismlar shaxsni boshqalardan ajratib turadigan so'zdir. Bolaga ism tanlashda uning o'ziga xos ma'noga ega bo'lishi katta ahamiyatga ega bo'lgan. Mifologiyalar, e'tiqodlar, urf-odatlardan ko'rinib turibdiki, ba'zi jamiyatlarda shaxs ismlari sehrli

va sirli kuchga ega bo'lib, uning fe'l atvori va xatti xarakterida rol o'ynaydi. Bu ismni tashuvchiga ham hatto boshqalarga ham ta'sir qiladi deb hisoblashgan.⁹¹

Bolaga ism berish qadimiy jarayon bo'lib, kishilar bu masalaga mas'uliyat bilan yondashadilar. Bu jarayonda ma'lum e'tiqod, ishonch, tasavvurlar shakllana borgan hamda har bir davr ijtimoiy tuzum, xalqlararo munosabatlar ko'chish jarayonlari ism berishga o'z ta'sirini o'tkazgan.⁹²

Farzandli bo'lish har bir oilada ruhiy-ma'naviy hayajonlarni boshdan kechirishga va turli orzu-umidlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu jarayonda turli motivlar shakllanadi.

Asosiy qism. O'zbek antroponimik tizimining ildizlari qadimgi turkiy dunyoqarash bilan bog'liq. Totemistik e'tiqodlarda bola ism orqali tabiat ruhlari bilan himoya topadi, deb ishonilgan. Bo'riboy, Qaplon, Arslon kabi ismlar kuch, jasorat va himoya ramzidir. Bu ismlar xalq tafakkuridagi inson va tabiat uyg'unligi konsepsiyasini ifodalaydi.

Turkiy xalqlar folklorida bo'ri obrazi an'anaviy ravishda qadimgi turk davridagi bo'rini davom ettirgan. Jumladan, boshqird xalq eposlarida ham bo'ri obrazi qadimgi turk afsonalaridagi xususiyatlarga ega.

Jumladan, qadimgi xitoy yilnomalarida qayd etilishicha, qadimgi turk va mo'g'ul xalqlari bayrog'ida bo'ri kallasi tasviri tushirilgan. Ona bo'ridan tug'ilgan Ashin urug'i katta iqtidor egasi bo'lib, davlatni boshqarganlar. Ular qayerga borib o'rnashsalar, o'sha joyda bo'rining tasviri tushirilgan bayroqni o'rnatganlar va bu bilan o'zlarining kelib chiqishlariga ishora qilganlar. Mo'g'ullar ham o'zlarining ajdodlarini hurmatlab, bayroqlarida bo'rining oltin kallasini tasvirlaganlar. Mo'g'ul afsonalariga ko'ra, Chingizxon kulrang bo'ridan kelib chiqqan.⁹³

"O'g'uznoma"dagi muhim obrazlardan biri ko'kyolli erkak bo'ri obrazidir. Ko'k bo'ri timsoli qadimgi turkiy yodgorliklardagi ma'nosini va vazifasini saqlagan. Mazkur bo'ri ham Tangri (osmon)dan tushgan. Shuning uchun bo'rining rangi osmon rangi bilan bir xilda. Aslida bo'ri timsoli bu o'rinda ahamiyatlidir. Qadimgi xitoy yilnomalarida turkiy qavmlarning bo'ridan kelib chiqqani haqidagi afsona bor.⁹⁴

Ism o'zbek jamiyatida ijtimoiy mansublikning belgisi ham bo'lgan. Bek, Mirza, Boy, Xon kabi komponentlar tabaqaviy farqni bildirgan. Shu bilan birga, ism tanlash jarayonida jamoaning fikri ustun bo'lib, bu o'zbek xalqining tafakkurini ko'rsatadi. Bola ismi nafaqat shaxsga, balki avlod sha'niga daxldor deb qaralgan.

⁹¹ Islom oncesi Donemede turklerde ve Araplarda Kisilere Ad koymada etkili olan benzer faktorler ,Ahmet Ihsan Dundar

⁹² Begmatov.E"O'zbek tili antroponimikasi""Fan" Toahkent,2013 148-bet

⁹³ Раҳмонов Н.А.Орхон-енисейские памятники и тюркские эпосы.АДД, Ташкент,1991.35-bet

⁹⁴ N.Rabon Turk xoqonligi. Toshkent,Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashryoti ,1993,31-bet.

Masalan, Bek turkiy xalqlarning ba'zilarida xonliklar davrida davlat arboblari, shahar yoki viloyat hokimlariga, ularning bolalariga berilgan faxriy unvon hamda shunday unvonga sazovor bo'lgan shaxsni anglatgan.⁹⁵ Keyinchalik barcha tabaqa vakillari o'z farzandining ismiga "bek" so'zini qo'shib atay boshladi.

Mirza "amirzoda" so'zining qisqartirilgan shakli bo'lib savodli va o'qimishli odamni ifodalaydi. Mirzo, Mirzoda, Amirzoda amirning o'g'liga nisbatan qo'llangan. Mirzo atoqli otdan keyin yoziladi (Ulug'bek Mirzo, Ibrohim Mirzo) va atoqli otdan oldin yoziladi (Mirzo Anvar).⁹⁶ Temuriylar davrida asosan ulug' mansab, unvon sifatida ishlatilgan. Hozirda barcha ismlarga qo'shiladi. Xon turkiy va mo'g'ul xalqlari hukmdorlari unvonidir. Xonlik qilgan xon lavozimidagi shaxs ismiga qo'shib unvonni ifodalaydi. (Bahodirxon-Xivada, Xudoyorxon-Qo'qonda xonlik qilgan).⁹⁷ Hozirgi kunda barcha ota-onalar xonlardek hurmat-e'zozda bo'lsin deb yigit-qizlar ismini oxiriga qo'shib aytishadi.

Bolalarning tug'ilish navbati hamda katta kichikligini anglatuvchi ismlardan Boshbek, Kattabek, To'ng'ichboy ismlari birinchi tug'ilgan o'g'il farzandlarga; ikkinchi farzandga qiz bo'lsa Soniya qo'yiladi; to'rtinchi o'g'il bo'lsa Chorriqul, qiz bo'lsa Robiya; kichik farzandlarga Kenjaboy, Kenjaqiz, Mittiqiz, Mittigul, Zulayxo ismlari qo'yilgan.

Tabiatdagi tabiiy qimmatbaho toshlar nomlari bilan ifodalangan Oltinoy, Oltinbek, Tilla ismlarini farzandi tilla, zardek qimmatli va qadr baland bo'lsin deb qo'yishgan. Marvarid, Marjona, Injubeka ismlari go'zal, latofatli, yorqin degan ma'nolarni anglatadi. Olmosbek va Olmosxon nomlari olmosdek mustahkam, baquvvat, qimmatli va qadrli bo'lishi uchun qo'yiladi. Javohir, Javhar va Zabarjad ismlarini qimmatbaho toshni ifodalaydi zeb-u ziynatlar egasi, boy-badavlat va bebaho bo'lsin deb qo'yishadi.

Ortiqboy, Ortiqjon, Ziyodulla, Ziyoda kabi ismlar inson tanasida ya'ni qulog'ida, bo'ynida qo'lida ortiqcha joyi bo'lsa yoki barmoqlarini soni odatdagidan ortiq bo'lsa qo'yilgan. Anorbek, Anora, Norniso, Norqul, Norboy ismlari tanasida qizil dog' yoki qizil xoli borligi uchun qo'yiladi. Xolposhsha, Xolboy, Xolniso, Xolbeka, Xolida, Mengliboy, Mengbeka, Mengliyuz singari ismlar tug'ilganda tanasida katta xoli bilan yoki xollar miqdori ko'p holatda tug'ilgan farzandlarga nom sifatida beriladi. Agar mos ism berilmasa sog'ligiga ta'sir korsatadi deb o'ylashgan. Tanasidagi xoli kattalashadi yoki ko'payib ketadi deb bilishgan.

Navro'z, Navro'za, Navro'zbek ismlari Navro'z ayyomida tug'ilgan farzandlarga; Hayit, Hayitboy, Hayitgul, Qurbongul, Qurbonboy, Ramazon ismlari

⁹⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati Moskva "rus tili" nashryoti, 1981 97-bet

⁹⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashryoti Toshkent 599-bet

⁹⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashryoti Toshkent 410-bet

Ramazon va Qurbon hayiti bayramida tug'ilgan bolalarga; Bayram, Bayramxon va Bayrambek ismlari bayram kunlarda tug'ilgan farzandlarga nom sifatida berilgan.

Islom dini kirib kelgach, ism berish marosimi yangi semantik mazmun bilan boyidi. Arabcha va forsha ilohiy mazmunga ega ismlar – Abdulloh, Muhammad, Zaynab – xalq orasida keng yoyildi. Shu bilan birga, eski turkiy unsurlar saqlanib qoldi: Tilovberdi, Tursunboy, Ortiqbek kabi shakllar islamiy va xalqona sintetik tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Ism bu davrda iymon, duo va niyat bilan bog'liq ruhiy jarayonga aylandi. Inson taffakurida e'tiqodning roli eng katta qadryatni shakllantiruvchi omil hisoblanadi.

O'zbek antroponimiyasida ism tanlash ota-onaning ruhiy holati va umidini aks ettiradi. Tilakberdi, Orzubek, Muyassar kabi ismlar niyat va orzu ifodasidir. Tursun, Qoldi, Sotiboldi esa bola umrini saqlab qolish istagini bildirgan. Bu hodisalar xalq tafakkurida taqdir va himoya g'oyalarining mustahkamligini ko'rsatadi. (Bu odatning tarixiy motivi)

Agar odamning birinchi farzandi vafot etgan bo'lsa, keyingi farzandiga o'g'il bo'lsa Sotiboldi, qiz bo'lsa Sotti, Sati yoki Sotu ismlari qo'yilgan. Chunki farzandsiz va farzandi o'lgan oilalar xonaqoh va ziyoratgohlarga borib namoz o'qigan va iltijo qilgan. Farzandli bo'lsam senga bag'ishladim, sotdim degan. Bola "sotish" va "sotib olish" marosimi haqidagi rivoyatlarda chaqaloqqa qo'yilgan ism himoyachi ekanligini anglatadi. Bola sotilganda ularning mulki ular sotilgan ziyoratgoh, uy yoki qabrga o'tadi va shuning uchun ular butun hayoti davomida g'ayritabiiy kuchlar tomonidan himoyalangan deb bilishgan.⁹⁸ Kosmik va estetik ramzlar Tabiat va koinot unsurlari bilan bog'liq ismlar (Oybek, Xulkar, Osmon, Kavkab (yulduz), Safura (nurli yulduz), Yulduz, Hilola, Cho'lpon, Xurshid) o'zbek xalqining kosmik uyg'unlik falsafasini ifodalaydi. Inson va koinot o'rtasidagi uyg'unlik, nur va hayot ramzi bu ismlarda estetik-falsafiy darajada mujassamlangan. Masalan "O'g'iznoma" dostonida ham kosmik nomlar uchraydi. O'g'iz xoqon bolalarga Kun, Oy, Yulduz, Ko'k, Tog', Dengiz deb ism qo'ygan. Bu esa qadimgi turkiy xalqlarda tabiat va uning predmetlarini ahamiyati katta bo'lganini ko'rsatadi.

Xulosa. O'zbek antroponimik an'analari – xalqning tarixiy xotirasi, diniy e'tiqodi va estetik dunyoqarashining sintezi sifatida shakllangan. Ism xalq tafakkurida shaxsning taqdiri, avlod xotirasi va ijtimoiy o'rni bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois antroponimlar tahlili o'zbek milliy tafakkurining eng qadimiy qatlamlarini yoritishda beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi.

Mavjud hamma narsaning nomi bo'lganidek insonni ham nomsiz bo'lishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Ism qo'yishda faqat ijobiy elementlarga

⁹⁸ Samanizm Inancina Bag'li Bebek Adlandirmalari .Makbuli Sevinch//Melek Elmas

yuzlanishgan. Ism qo'yish jarayoni chaqaloqqa yaxshi kelajak tilash uchun boshqalardan ajralib turishi, yagona va qiyoslanmaydigan bo'lishi uchun amalga oshiriladi. Shaxs nomini bergan va olgan inson ijtimoiy mavqeini, madaniyatini, e'tiqodini, ertangi kunini va tashvishlarini o'zida aks ettirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hojiyev A. O'zbek tilining tarixiy leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981.
2. Jo'rayev M. O'zbek antroponimikasining tarixiy asoslari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2014.
3. Korkmaz Z. Türk Dili Üzerine Araştırmalar. – Ankara: TDK, 2003.
4. G'ulomov A. Til va xalq tafakkuri uyg'unligi. – Toshkent: Universitet, 2019.
5. Begmatov. E "o'zbek tili antroponimikasi. -Toshkent: Fan, 2013.
6. Islam oncesi donemde turklerde ve araplarda kisilere ad koymada etkili olan benzer faktorler// Ahmet Ihsan Dundar.
7. Sabanizm Inancina bag'li bebek adlandirmalari// Makbule Sevinc// Melek Elmas
8. O'zbek tili izohli lug'ati Moskva "russkiy yazik" 1981.
9. "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" davlat ilmiy nashryoti. -Toshkent